

Ilmiy nashriyot veb platformalarida ishlash amaliyoti.

Shohida Salimova
Qarshi DU magistri

Ushbu maqola ilmiy nashriyot veb platformalarining amaliy ishlash mexanizmlari va ulardan samarali foydalanish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda raqamli nashriyot tizimlarining asosiy komponentlari – maqolalarni qabul qilish va boshqarish tizimlari (OJS, ScholarOne, Editorial Manager), nashr jarayonining avtomatlashtirilgan bosqichlari (muallif topshirishi, ekspert baholash, tahririyat qarori, nashrga tayyorlash va indeksatsiya), hamda platformalarning foydalanuvchi interfeyslari va ular bilan ishlash amaliyotlari tahlil qilinadi. Amaliy tajribalar asosida ilmiy jurnallarning veb platformalarida samarali ishlashning quyidagi jihatlari yoritilgan: mualliflar uchun maqola topshirish jarayoni, muharrirlar uchun ekspert baholashni boshqarish, ekspertlar (reviewer) uchun baholash topshirig'ini bajarish, va texnik administratorlar uchun tizimni sozlash va monitoring qilish vazifalari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ilmiy nashriyot platformalarida ishlash samaradorligi foydalanuvchining texnik tayyorgarligiga, platformaning interfeys qulayligiga va tashkiliy jarayonlarning avtomatlashtirish darajasiga bog'liq. Shuningdek, ochiq kodli va tijoriy platformalar o'rtasidagi farqlar, ularning afzalliklari va cheklovlari amaliy misollar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy nashriyot platformalari, Open Journal Systems (OJS), maqolalarni boshqarish tizimlari, ekspert baholash (peer review) jarayoni, raqamli nashriyot amaliyoti, foydalanuvchi interfeysi, muallif va muharrir funksiyalari, nashr jarayonini avtomatlashtirish.

Nashriyot platformasida muallif sifatida maqola topshirish va nashr e'tirish bir necha oddiy, ammo muhim bosqichlardan iborat bo'lib, ishni jurnalning haqiqiy veb manzilini aniqlash va ishga tushirish bilan boshlash mumkin.

Nashriyot platformasi akkaunt yaratish va tizimga kirish jurnal veb-saytidagi "Register" tugmasi orqali ro'yxatdan o'tiladi. Ism, familiya, affilatsiya (tashkilot), email va parol kabi ma'lumotlar to'ldiriladi. Ro'yxatdan o'tishda "register as author" qutisini belgilash muhim, aks holda maqola topshirish imkoniyati bo'lmaydi.

Tasdiqlash jarayonini ba'zi jurnallar email orqali akkauntni tasdiqlashni talab qiladi va tasdiqlash havolasi electron pochtaning "Inbox" yoki "Spam" qismiga kelib tushadi.

Maqola topshirish (Submission) bosqichida tizimga kiringach, "New Submission" tugmasi bosiladi va quyidagi 5 bosqichli jarayon boshqariladi:

Boshlash (Start) - Maqola bo'limi (Journal Section) tanlanadi va jurnal tomonidan belgilangan barcha shartlar (masalan, maqola ilgari boshqa joyda nashr etilmaganligi) qabul qilinadi.

Maqola yuklash (Upload Submission): Maqola fayli (odatda MS Word formatida) tizimga yuklanadi. Yuklashdan oldin maqola jurnalning "Author Guidelines" va "Template"ga mos kelishiga ishonch hosil qilish kerak.

Metama'lumotlarni to'ldirish (Enter Metadata): Bu eng muhim bosqichlardan biridir. Maqolaning sarlavhasi, annotatsiyasi (abstract), kalit so'zlar, mualliflar

ro'yxati va foydalanilgan adabiyotlar (references) aniq va to'liq kiritilishi lozim . Bu ma'lumotlar jurnalning indeksatsiyasi (Google Scholar, Scopus va boshqalar) uchun asos bo'ladi.

Qo'shimcha fayllar (Upload Supplementary Files): Agar kerak bo'lsa, ma'lumotlar to'plami, diagrammalar yoki boshqa qo'shimcha fayllar yuklanadi.

Tasdiqlash (Confirmation): Kiritilgan barcha ma'lumotlar tekshiriladi va "Finish Submission" tugmasi bosiladi. Shu bilan maqola muharririyatga yuboriladi .

Jarayonni kuzatish maqola topshirilgandan so'ng, muallif o'zining shaxsiy kabineti (Dashboard) orqali maqolaning holatini kuzatib borishi mumkin . Jarayon quyidagi bosqichlardan o'tadi:

Tagriz - ilmiy nashriyotning yuragi va asosiy filtr tizimidir. U maqolani nashrga tayyorlaydi, uning sifatini oshiradi va ilm-fanning ishonchliligini ta'minlaydi. OJS kabi platformalar aynan shu murakkab jarayonni onlayn tartibda samarali boshqarish imkonini beradi.

Matn tahriri - maqola til va uslub jihatidan tahrir maxsus birlashtirilgan tahrirchi tomonidan amalga oshiriladi.


Nashrga tayyorlashda Maqola PDF yoki HTML formatiga o'tkaziladi va jurnal soniga (issue) nisbatan kiritiladi.

OJS bilan ishlash amaliyoti jurnalni sozlash, tahririyat jarayonlarini boshqarish va nashrni yo'lga qo'yish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Quyida OJS platformasida samarali ishlash uchun asosiy amaliyotlar va qadamlar keltirilgan.

Jurnalni sozlash va boshqarish jarayonida jurnalningizni OJSda yo'lga qo'yish uchun quyidagi asosiy sozlamalarni to'g'ri ketmaketlikda bajarish muhim:

Asosiy ma'lumotlarni kiritish - Jurnal nomi, maqsadi va ko'lami (aims and scope), nashriyotchi va ISSN raqamini *Settings > Journal* bo'limida to'ldiramiz va bu ma'lumotlar elektron jurnalning "jurnal haqida" sahifasida aks etadi .

Jurnal ko'rinishini sozlash - jurnal logotipini tayyorlab yuklash va tizimga kiritish, mavzu tanlab va bosh sahifa mazmunini *Settings>Website >Appearance* bo'limida o'zgartirish mumkin va bu jurnalningizga o'zgacha ko'rinish beradi.



1-rasm. Tizim interfeysini sozlash oynasi.

Foydalanuvchi rollarini belgilash - Settings > Users & Roles bo'limida muallif, muharrir, taqrizchi (reviewer) kabi rollarga tegishli ruxsatlarni sozlash mumkin va siz, shuningdek, muammolarni hal qilish uchun ma'lum bir foydalanuvchi sifatida tizimga kirishingiz (login as) mumkin bo'ladi. Masalan administrator ya'ni jurnal bosh muharriri nomidan taqrizchi rolga yoki yordamchi tahrirchi rolga kirish va ma'lumotlarni qayta ishlash

Given Name	Family Name	Username		
▶ admin	admin	admin		
▶ Amy	Gomez	userjepe4o		
▼ Shohida	Salimova	shohida		
Email	Edit User	Disable	Remove	Merge User

2-rasm. Tizimda foydalanuvchilarni boshqarishni sozlash oynasi.

Nashriyot tizimini Plaginlar¹ OJS yadrosiga bevosita o'zgartirish kiritmasdan, qo'shimcha funksiyalarni integratsiya qilish imkonini beradi. Bu esa tizimni moslashuvchan, kengaytiriladigan va barqaror qiladi: Tizimda plagin o'rnatish, ishga tushirish va o'chirish amaliyoti Settings>Website>Plugins bo'limiga o'tib bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Salimova, S. (2026). NASHRIYOT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH ILMIY TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA. *Natsciences.Uz-Topical Issues of Natural and Applied Sciences*, 2(1), 15-18. <https://doi.org/10.47390/nat-11v2y2026/n03>
2. Jurayev T. N. The use of mobile learning applications in higher education institutes //Advances in Mobile Learning Educational Research. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 610-620.
3. Norbutaevich J. T. Use of digital learning technologies in education on the example of smart education //Journal La Edusci. – 2020. – T. 1. – №. 3. – C. 33-37.
4. Norbutaevich J. T. Use Of Mobile Applications In The Process Of Teaching Information Technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 6. – C. 100-106.
5. Jurayev T. Interactive methods of assessment of knowledge on the basis of digital education on the subject" Information technology in education"

¹ **Plagin** — bu asosiy dasturga yangi funkcionallik qo'shadigan kichik dasturiy modullar. Ular dastur ishlashini yaxshilash, dizaynni boyitish va foydalanuvchi imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

//International Journal Papier Public Review. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 71-77.

6. Жўраев Т. Н. Электрон дарсликларда билимни баҳолашнинг интерфаол усуллари («Информатика ва ахборот технологиялари» фани мисолида) //Современное образование (Узбекистан). – 2019. – №. 3 (76). – С. 54-59.